



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 104 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash 10	Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari 14	Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 19	Dadonova Aziza Tulkunovna
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili 23	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi 30	Tuksanova Zilola Izatulloyevna
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili 35	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi 41	Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish 47	Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli 50	Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari 54	Qobilov Voxidjon Zoxidovich
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку 58	Мухамеджанова Римма Рашидовна
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari 66	Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili 70	Sadriddinova Feruza Meliyevna
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish 75	Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar 80	Qudratov O'ktam G'ofurovich
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari 85	Tursunov Xusniddin Isomovich
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari 88	Safarova Halovat Barnoyevna
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari 91	Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap) 97	Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli 101	Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi

MAKTABLARDA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIKNI ISLOH QILISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Qudratov O'ktam G'ofurovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (ChQBT) tizimini isloh qilishning dolzarbligi, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy xavfsizlik muhitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk etib voyaga yetkazish masalalari yoritiladi. Xalqaro tajriba asosida tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, milliy xavfsizlik, yoshlar siyosati, islohot, ta'lim tizimi.

Abstract: This article provides a scientific and practical analysis of the relevance of reforming the system of initial pre-conscription training (IPCT) in schools of the Republic of Uzbekistan, existing challenges, and possible solutions. It also highlights the issues of educating young people in the spirit of military patriotism, ensuring their physical and moral development, and preparing them as mature individuals within the framework of the modern security environment. Based on international experience, proposals are put forward to further improve and modernize the system.

Key words: initial pre-conscription training, military-patriotic education, national security, youth policy, reform, education system.

Аннотация: В данной статье на научно-теоретическом и практическом уровнях анализируются актуальность реформирования системы начальной допризывной подготовки (НДП) в школах Республики Узбекистан, существующие проблемы и пути их решения. Кроме того, рассматриваются вопросы воспитания молодёжи в духе военно-патриотизма, формирования её физической и духовной зрелости в условиях современной среды безопасности. На основе международного опыта предлагаются рекомендации по совершенствованию данной системы.

Ключевые слова: начальная допризывная подготовка, военно-патриотическое воспитание, национальная безопасность, молодёжная политика, реформа, система образования.

KIRISH

Globalashuv sharoitida davlatlarning milliy xavfsizligi va mudofaa salohiyati masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday davlatning mudofaa qudrati nafaqat zamonaviy qurol-aslahaga, balki harbiy xizmatga tayyor, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk yosh avlodga ham bog'liqdir.

Mustaqil O'zbekistonda o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi va yetuk fuqaro etib yetkazish muammosi davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jahon va mintaqadagi siyosiy vaziyatning tez o'zgaruvchanligi, ijtimoiy-siyosiy hayotning o'ziga xos tomonlari davlatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga, yosh avlodni Vatan himoyasiga tizimli tayyorlashni talab etmoqda.

Masalaning dolzarbligi shundan iboratki, mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha belgilangan keng ko'lamli vazifalarni samarali amalga oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va faol ishtirokini ta'minlash vazifalarini samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu masalaning metodologik asoslari sifatida pedagogik, sotsiologik va huquqiy manbalar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda mavjud ilmiy maqolalar tahliliga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir ^[6]. Shu jihatdan yoshlar zamonaviy dunyoqarashining shakllantirilishi ta'lim-tarbiyaga bevosita bog'liq ekanligi ayon bo'lmoqda. Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy negizlari tubdan o'zgardi. Chunki mamlakatdagi bozor iqtisodi bilan bog'liq yangicha tartibotlar va qadriyatlar ularning ongi va tafakkuri, qarashlarining tubdan o'zgarishiga asos yaratdi.

Ularning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi ham o'zgarishi tabiiy ehtiyojga aylandi ^[8]. Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish ko'p jihatdan kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarning qanchalik zamonaviy bilimlarni to'liq egallashi, turli xil vayronkor g'oyalarga qarshi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy immunitetning hosil qilinishi hamda, albatta, mas'uliyat va daxldorlik tuyg'ularining shakllanganligiga bog'liqdir. Chunki hozirgi globallashuv davrida ogohlik va umumdavlat manfaatlari uchun o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish davr talabiga aylangan. Ta'lim-tarbiya jarayonida esa "oila-maktab-mahalla" konsepsiyasi mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglash darkor. Avvalo zamonaviy yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi oilada shakllantiriladi. Jamoada, mahallada milliy qadriyatlar ruhida rivojlantiriladi, ta'lim muassasalarida esa yanada mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2023 yildagi 267-sonli¹ "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi ^[8]. Ushbu qaror doirasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik va mardlik tuyg'ularini singdirish belgilangan.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" konseptual g'oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat.

Mazkur Konsepsiya "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" g'oyasi asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

Harbiy xizmat nufuzi hamda milliy Qurolli Kuchlarimiz bilan faxrlanish va ularning salohiyatiga ishonch hissini shakllantirish, yoshlarning harbiy kasbni tanlashga bo'lgan qiziqishini oshirish imkonini beradi, yoshlarda ijtimoiy ahamiyatga ega fuqarolik tuyg'usini shakllantirish, yetuklik, Vatanga muhabbat va burch, milliy an'analarga sodiqlik, tarixiy va madaniy qadriyatlarni saqlashga intilish kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, har tomonlama rivojlangan, sodiq, vatanparvar, odil, mard va jasur yoshlarning tayyorlanishi ta'minlanadi, yoshlarda radikal g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitet shakllanadi va mustahkamlanadi, ma'naviy-axloqiy muhit va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash negizida mustahkam oila qurish fazilatlari rivojlanadi ^[4].

Shuningdek, g'oyaviy va ma'naviy ta'lim yoshlarda o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar, tarixiy madaniy merosga hurmat, umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari va xalqaro kunlarning g'oyaviy-ma'naviy mazmun-mohiyatini yanada kuchaytirish orqali xalqimizning boy madaniy merosi va o'ziga xosligini asrab-avaylash, davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi mas'uliyatini oshirish, umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda muhimligi qayd etiladi ^[2].

1 <https://lex.uz/uz/docs/-8217168>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-sonli² "O'quvchi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha belgilangan keng ko'lamli vazifalarni samarali amalga oshirish belgilangan^[5].

Mazkur qaror asosida ta'lim tashkilotlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy yo'nalishlar etib belgilandi: o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari sifatlarni, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish; mamlakatimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, Sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash; harbiylar hayotiga oid vatanparvarlik g'oyasidagi qo'llanmalar, film, ijtimoiy rolik, badiiy asar, turkum ko'rsatuvlar yaratish; ta'lim tashkilotlarida "Turon" maktab teatri tanlovini muntazam ravishda o'tkazib borish; o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish.

Shuningdek, mazkur qarorning sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-noyabrdagi 688-sonli³ "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari lavozimiga nomzodlarni saralash va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomi qabul qilindi. Ushbu Nizom davlat umumta'lim maktablari, Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablardagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari lavozimiga nomzodlarni saralash hamda ChQBT rahbari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi^[3].

O'z navbatida, bir qator ilg'or davlatlardagi yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy tayyorgarligi bo'yicha tajribalari o'rganib chiqildi va quyidagilar aniqlandi:

Amerika Qo'shma Shtatlari

Amerika Qo'shma Shtatlarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ularni harbiy xizmatga tayyorlash jarayoni uzluksiz tizimda samarali tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu davlatda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi harakati (skautlar harakati) mavjud bo'lib, bu harakat davlatdagi barcha o'quv muassasalarini qamrab olgan. Amerika yoshlarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi maktab ta'lim muassasalaridan boshlanib, Qurolli Kuchlardagi harbiy xizmatgacha va undan so'ng ham davom ettiriladi. Davlatda Qurolli Kuchlarning turlari bo'yicha ko'plab harbiy-o'quv lagerlari amal qiladi. Bu lagerlarda har bir qo'shin turi o'zlariga bo'lajak mutaxassislarni tayyorlaydi. Bunday lagerlarga ega bo'lish har bir qo'shin turi uchun faxr bo'lib hisoblanadi. Bu lagerlar asosan davlat tomonidan beriladigan moliyaviy yordam asosida amal qiladi. Bundan tashqari, homiy tashkilotlar ham o'zlarining moddiy yordamini beradilar. Bunday lagerlarda yoshlar harbiy-texnik va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Isroil davlati

Isroil davlatida chaqiriqqa qadar boshlang'ich harbiy tayyorgarlik 13 yoshdan boshlanadi. U o'smirlarning harbiylashtirilgan GADNA tashkiloti (ivritdan – yoshlar batalyonlari) tomonidan amalga oshiriladi. GADNA tashkilotiga rahbarlikni Isroil Mudofaa vazirligi ofitserlari olib boradi va o'z ishlarini Maorif vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiradilar. Har yili Isroil davlatining katta sinf o'quvchilari 2 haftalik o'quv yig'inlarini o'tkazish uchun harbiy lagerlarga boradilar. O'quv yig'inida ular armiya ofitserlari va serjantlariga bo'ysunadilar. O'quv yig'ini davrida o'quvchilar kiyim-kechak va boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanadilar. Ular bilan otish, jismoniy, saf va taktik tayyorgarliklar bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. O'quv yig'ini yakunida har bir o'quvchining shahodatnomasiga uning harbiy tayyorgarligi darajasi va o'quvchi qiziqqan harbiy kasb (mutaxassislik) haqida qayd qilinadi.

Buyuk Britaniya (Angliya) davlati

Buyuk Britaniya (Angliya) davlatida yoshlarni harbiy tayyorgarlikka o'qitish Kadetlar kuchlari deb nomlangan tizim orqali amalga oshiriladi. Bu tizim 12 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlarni qamrab olgan bo'lib, u asosan davlat va xususiy o'quv muassasalarida amal qiladi.

Bundan tashqari, maktabdan tashqari Kadetlarning armiya kuchlari nomli tizim ham mavjud.

² <https://lex.uz/uz/docs/-7225101>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-7808667>



Rossiya Federatsiyasi

Rossiya Federatsiyasida bugungi kunda yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash o'rta umumta'lim maktablari-dagi hayot xavfsizligi faoliyati nomli fan va ko'plab yoshlarning harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi harakatlari hamda birlashmalari orqali amalga oshirilmoqda.

Rossiyada o'smirlar va bolalarning "Yunaya armiya" deb nomlangan butunrossiya harbiy-vatanparvarlik jamoatchilik harakati mavjud. Bundan tashqari, kadetlar harakati ham mavjud bo'lib, ular 50 mingdan ortiq sinflarni tashkil etadi. Shuningdek, davlatning GTO harbiy-sport kompleksi me'yorlari dasturi ham o'quv yurt-larida qaytadan tiklandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini isloh qilishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, ilmiy adabiyotlarni o'rganish hamda umum-lashtirish metodlari qo'llanildi.

Qiyosiy taqqoslash metodi yordamida O'zbekiston Respublikasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimining amaldagi holati AQSh, Isroil, Buyuk Britaniya va Rossiya Federatsiyasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda harbiy xizmatga tayyorlash tajribalari bilan solishtirildi. Ushbu taqqoslash orqali mazkur davlatlarda qo'llanilayotgan samarali mexanizmlar, tashkiliy yondashuvlar va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari aniqlandi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbi-yalashga oid konseptual hujjatlar mazmuni o'rganildi. Shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabi-yotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda statistik va tahliliy manbalar o'rganilib, ularning ilmiy xulosalari umumlashtirildi.

Tadqiqot natijasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimining mavjud muammolari, ularning kelib chiqish omillari hamda tizimni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Olingan ilmiy natijalar asosida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining mazmunini zamonaviy talablar asosida takomil-lashtirish, o'quv-metodik ta'minotni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va ilg'or xorijiy tajri-balarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyor-garlik tizimining amaldagi holati hamda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsat-diki, mamlakatimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni harbiy xizmatga tayyorlash borasida muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, mazkur tizim faoliyatida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Jumladan, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha yagona zamonaviy o'quv-metodik ta'minotning yetarli darajada shakllanmagani, ayrim ta'lim muassasalarida o'quv-moddiy bazaning talab dara-jasida emasligi hamda amaliy mashg'ulotlar ulushining cheklanganligi fan samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsat-moqda. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etishda hududlar kesimida bir xillikning mavjud emasligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasining turlicha ekani kuzatildi.

Xorijiy tajriba tahlili AQSh, Isroil, Buyuk Britaniya va Rossiya Federatsiyasida yoshlarni harbiy-vatanpar-varlik ruhida tarbiyalash uzluksiz tizim asosida yo'lga qo'yilganligini ko'rsatdi. Mazkur davlatlarda nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar, dala-o'quv yig'inlari, harbiy-sport musobaqalari, kadetlar harakati hamda zamonaviy simulyatsion texnologiyalar bilan uzviy bog'langan. Natijada yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishi, jismoniy tayyorgarligi va fuqarolik mas'uliyati yuqori darajada shakllanmoqda.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida ham ilg'or xorijiy tajribaning ayrim elementlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, o'quv dasturlarini zamonaviy xavfsizlik tahdid-lariga mos ravishda yangilash, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, harbiy-vatanparvarlik klublari faoliyatini kengaytirish, raqamli ta'lim vositalari va simulyatsion texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlarining kasbiy malakasini muntazam oshirib borish zarur.

O'tkazilgan tahlillar asosida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini takomillashtirish yoshlarni Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va harbiy xizmatga tayyorgarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirishga, shuningdek, mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, hozirgi kunda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining o'qitilishida qator kamchilik va nomutanosibliklar mavjudligi sir emas. ChQBT fanini maktablarda o'tkazilayotganiga qaramay, fan dasturi bo'yicha muqim bir qarorga kelina olinmayotganligi, ya'ni hali ham fan dasturining yagona tasdiqlangan namunasining yo'qligi, o'quv-moddiy bazani shakllantirish bo'yicha yagona yo'riqnomaning mavjud emasligi, vatanparvarlik tarbiyasi doirasida o'tkazilayotgan harbiy-sport musobaqalari nizomlaridagi yechimini kutayotgan kamchiliklar hamda ularning son jihatdan ko'pligi bo'yicha kelib chiqayotgan tushunmovchiliklar shular jumlasidandir.

ChQBT fani samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan, ChQBT fanidan harbiy-sport musobaqalari nizomlari talablarini ta'lim muassasalari imkoniyatlari va o'quv-moddiy baza talablaridan kelib chiqib o'zgartirish, ularni o'tkazish jarayoni va muddatlarini e'tiborga olgan holda optimallashtirish, yangi avlod zamonaviy o'quv adabiyotlari va darsliklarini yaratishda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash hamda o'quv-moddiy bazani shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatova N. (2025). Educating Students on the Basis of National Values. International Journal of Political Sciences and Economics, 1(1), 158–161. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/84906>
2. Boqiev Farhod Esonovich. (2025). Conceptual Basis of Educating Patriotic Youth in the General Secondary Education System. European International Journal of Pedagogics, 5(09), 26–28.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-noyabrdagi 688-sonli4 qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli5 "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PQ-393-sonli6 qarori.
6. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – T.: O'zbekiston. – B. 326.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. Ergashev I. Zamondosh yoshlar qiyofasi // Axborot asrida ta'lim-tarbiya. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 6 b.

4 <https://lex.uz/uz/docs/-7808667>

5 lex.uz/uz/docs/-8217168

6 <https://lex.uz/uz/docs/-7225101>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.